

Topical Issues of the Implementation and Protection of Political Rights in Practice

ALIBEKOV ABBOS ANVAR O'G'LI

Student of the Jurisprudence Program, Faculty of Law, Karakalpak State University

Abstract

This article analyzes the role of political rights in the development of a democratic society and the rule of law, the legal foundations of their practical implementation, and the mechanisms for their protection. The study examines the realization of citizens' political rights, including the right to vote and be elected, participation in public administration, freedom of speech and opinion, and participation in public associations. Furthermore, it explores current challenges in ensuring and protecting political rights, legal and institutional approaches to addressing these issues, and the significance of international experience in this field. The findings highlight the importance of improving the mechanisms for the protection of political rights and increasing citizens' political participation.

Keywords

Political rights, human rights, constitutional rights, democratic state, civil society, right to vote and be elected, freedom of speech, public associations, right to petition, Ombudsman institution, legal protection mechanisms, legal culture.

SIYOSIY HUQUQLARNING AMALIYOTDA QO'LLANISHI VA ULARNI HIMOYA QILISHNING DOLZARB MASALALARI

ALIBEKOV ABBOS ANVAR O'G'LI

QDU, Yuridika fakulteti, "Yurisprudensiya" ta'lim yonalishi talabasi

alibekovabbos807@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada siyosiy huquqlarning demokratik jamiyat va huquqiy davlat qurilishidagi o'rni, ularning amaliyotda qo'llanilishining huquqiy asoslari hamda

himoya qilish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda fuqarolarning saylash va saylanish, davlat boshqaruvida ishtirok etish, soʻz va fikr erkinligi, jamoat birlashmalarida qatnashish kabi siyosiy huquqlarining amalga oshirilish holati yoritilgan. Shuningdek, siyosiy huquqlarni taʼminlash va himoya qilishda uchrayotgan dolzarb muammolar, ularni bartaraf etishning huquqiy va institutsional yoʻllari hamda xorijiy tajribaning ahamiyati koʻrib chiqilgan. Tadqiqot natijasida siyosiy huquqlarni samarali himoya qilish va fuqarolarning siyosiy faolligini oshirishga qaratilganligini koʻrishimiz mumkin.

Kalit soʻzlar: Siyosiy huquqlar, inson huquqlari, konstitutsiyaviy huquqlar, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, saylash va saylanish huquqi, soʻz erkinligi, jamoat birlashmalari, murojaat qilish huquqi, Ombudsman instituti, huquqiy himoya mexanizmlari, huquqiy madaniyat.

Актуальные вопросы реализации политических прав на практике и их защиты

Аннотация. В данной статье проанализированы роль политических прав в построении демократического общества и правового государства, правовые основы их реализации на практике, а также механизмы их защиты. В исследовании освещены вопросы реализации таких политических прав граждан, как право избирать и быть избранным, участие в государственном управлении, свобода слова и мнений, участие в общественных объединениях. Кроме того, рассмотрены актуальные проблемы обеспечения и защиты политических прав, правовые и институциональные пути их решения, а также значение зарубежного опыта в данной сфере. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости совершенствования механизмов защиты политических прав и повышения политической активности граждан.

Ключевые слова. Политические права, права человека, конституционные права, демократическое государство, гражданское общество, право избирать и быть

избранным, свобода слова, общественные объединения, право на обращение, институт Омбудсмана, механизмы правовой защиты, правовая культура.

Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash demokratik huquqiy davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu huquqlar tizimida siyosiy huquqlar alohida o'rin tutib, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishiga xizmat qiladi. Xususan, saylash va saylanish huquqi, so'z va fikr erkinligi, yig'ilishlar o'tkazish, jamoat birlashmalari hamda siyosiy partiyalar faoliyatida qatnashish huquqlari fuqarolarning siyosiy hayotdagi faolligini ta'minlaydigan muhim vositalar hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo miqyosida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, inson huquqlarini ishonchli himoya qilish va fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda siyosiy huquqlarni ta'minlash va himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli sud-huquq islohotlari amalga oshirilmoqda. Biroq siyosiy huquqlarning amaliyotda to'laqonli ro'yobga chiqarilishi, ularni himoya qilishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish, fuqarolarning huquqiy ongi va siyosiy madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq ayrim muammolar hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Shu munosabat bilan mazkur maqolada siyosiy huquqlarning nazariy-huquqiy asoslari, ularning amaliyotda qo'llanilishi hamda himoya qilinishining mavjud holati tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu sohadagi dolzarb muammolar va ularni bartaraf etishning huquqiy hamda institutsiona yo'nalishlari yuzasidan ilmiy xulosalar va takliflar ilgari suriladi.

Siyosiy huquqlar - bu fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida, siyosiy hayotda hamda hokimiyat organlarini shakllantirishda bevosita yoki bilvosita yani vakillari orqali ishtirok etishini ta'minlaydigan, davlat tomonidan kafolatlangan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar majmuidir. Ilmiy nuqtai nazardan, siyosiy huquqlar fuqaro va davlat o'rtasidagi huquqiy bog'liqlikni yani fuqarolik institutini ifodalaydi hamda mamlakatda demokratik prinsiplar va suverenitet qay darajada amal qilayotganini

ko'rsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi. Siyosiy huquqlar shaxslarning davlat va jamiyat hayotida erkin ishtirok etishiga imkon beradi. Bunga ovoz berish va davlat lavozimlarini egallash kiradi. Siyosiy huquqlarga ovoz berish huquqi, davlat lavozimlariga nomzod bo'lish huquqi, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazish huquqi, uyushmalar tuzish huquqi va boshqalar kiradi. Fuqarolik huquqlari inson huquqlari sifatida universal bo'lsa-da, siyosiy huquqlar ko'pincha fuqarolar (faqatgina ma'lum bir davlat fuqarolari uchungina) bilan cheklanadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar turli xalqaro va mintaqaviy shartnomalar, davlatlarning milliy konstitutsiyalari bilan himoya qilinadi¹. Siyosiy huquqlarning maqsadi davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishni ta'minlashdir. Konstitutsiyaning 36-moddasida «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi», deb belgilangan. Demak, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtiroki, eng avvalo, davlat va jamiyatni boshqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni bu davlat va jamiyat ishlarini boshqarish huquqidir. Ana shu huquq turli shakllar, vositalar orqali ro'yobga chiqariladi. Konstitutsiyaning o'zida qayd qilinishicha, fuqarolar davlatni boshqarishda bevosita hamda vakillari orqali ishtirok etadi. Fuqarolarning davlatni boshqarishda ishtirokini ta'minlovchi huquq, eng avvalo, saylov huquqidir. Fuqarolar davlat va jamiyat hayotiga taalluqli muhim masalalar yuzasidan referendumda (ovoz berishda) ishtirok etish, qonun loyihalarining muhokamasida ishtirok etish orqali ham davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etgan hisoblanadi. O'zbekistonda oxirgi referendum 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilib, unda Parlamentning ikki palatali strukturasi o'tish,

¹ Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi veb rasmiy veb-sayti <http://insonhuquqlari.uz/oz>

Prezidentning vakolat muddatini besh yildan yetti yilga qilib o'zgartirish masalasi hal qilindi. Referendumda ham saylovdagi kabi ma'lum yoshga yetgan fuqarolar ishtirok etadi². Konstitutsiyaning 34-moddasi, birinchi qismida fuqarolar kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egaligi mustahkamlangan. Tashkilot, korxona, muassasalarda fuqarolar o'zlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilashni yo'lga qo'yish maqsadida kasaba uyushmalariga birlashadi. Fuqarolar o'z siyosiy qarashlari, manfaatlaridagi umumiylik asosida siyosiy partiyalarga birlashadi va ularning faoliyati orqali mamlakat siyosiy hayotida ishtirok etadi. Demokratik jamiyatda yig'inlar tashkil etish huquqi fuqarolarning asosiy siyosiy huquqlaridan biri bo'lib, fuqarolarning demokratik boshqaruvda ishtirok etishining muhim kafolati hisoblanadi. Yig'inlarning miting, yig'ilish, namoyish, ko'cha yurishi, piket, fleshmob va boshqa turlari bo'lib, fuqarolar ularni tashkil etish orqali o'z fikrlarini erkin namoyon etadilar. Bundan tashqari, fuqarolar ushbu tadbirlar orqali mamlakat siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotining turli masalalari bo'yicha talab va takliflarni ilgari surishlari ham mumkin. Bugungi kundagi milliy qonunchilik tomonidan miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazish huquqining qamrovi va kafolati, javobgarlik masalasining ahvoli tadqiq qilingan. Mamlakatimizda miting, yig'ilish va namoyishlarni tartibga soluvchi qonunchilik yuzasidan olimlar va ekspertlar fikrlari, shuningdek, xorijiy davlatlar qonunchiligi qiyosiy tahlil qilinib, xulosalar berilgan hamda mamlakatimizda miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinishi bugungi kunning dolzarb muammosi ekanligi yoritib berilgan. Konstitutsiyaning 40-moddasida «Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif

² O.T. Husanov. Konstitutsiyaviy huquq Toshkent — «Ilm ziyo» — 2017-yil. 103-bet.

va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqiladi», deb belgilangan.

Murojaatlarning quidagi turlari mavjud.

Ariza — huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimos bayon etilgan murojaat.

Taklif — davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o‘z ichiga olgan murojaat.

Shikoyat — buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish to‘g‘risidagi talab bayon etilgan murojaat.

Elektron murojaat — belgilangan tartibda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida berilgan, shu jumladan davlat organining, tashkilotning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan murojaat, real vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda berilgan og‘zaki murojaatlar bundan mustasno.

Ishonch telefoni — jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish uchun mo‘ljallangan maxsus telefon aloqa tizimi.

Takroriy murojaat — ayni bir jismoniy yoki yuridik shaxsdan kelib tushgan, uning avvalgi murojaati yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilinayotgan yoki boshqacha tarzda norozilik bildirilayotgan, shuningdek, agar takroriy murojaat kelib tushgan paytga kelib qonunchilikda belgilangan ko‘rib chiqish muddati tugagan bo‘lsa, ilgari murojaati o‘z vaqtida ko‘rib chiqilmaganligi to‘g‘risida xabar qilinayotgan murojaat.

Anonim murojaat — jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoki yuridik shaxsning to‘liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilmagan yoxud ular haqida yolg‘on ma’lumotlar ko‘rsatilgan murojaat, shuningdek uni identifikatsiya qilish imkoniyatini bermaydigan elektron murojaat yoxud imzo bilan tasdiqlanmagan yozma murojaat.

Murojaatning dublikati — ayni bir jismoniy yoki yuridik shaxs murojaatining ko‘chirma nusxasi.

Ommaviy qabul — davlat organi rahbarining yoki bu borada vakolat berilgan mansabdor shaxsining jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari bilan ommaviy uchrashuvlarida murojaatlarni qabul qilishga doir harakati.

Videokonferensaloqa — uzoqda joylashgan bir nechta abonentlarning real vaqt rejimida audio va videoaxborot almashish imkoniyati bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv hamkorlik qilishi.

Davlat ishtirokidagi tashkilot — ustav fondida davlat ulushi mavjud bo‘lgan tijorat tashkiloti yoxud to‘liq yoki qisman davlat organi tomonidan tashkil etilgan yoki ta’sis etilgan notijorat tashkiloti³.

Ombudsman institutiga kelib tushgan murojaatlar dinamikasi siyosiy huquqlar va fuqarolarning murojaat qilish huquqlarini himoya qilish sohasidagi amaliy holatni tahlil qilish imkonini beradi. 2024-yil davomida jami 23 422 ta murojaat qayd etilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 25 foizga oshganini anglatadi. Ushbu murojaatlarning qariyb 10,5–11,9 foiz qismini fuqarolarning siyosiy huquqlari, fuqarolik erkinliklari hamda murojaat qilish huquqlarining buzilishi bilan bog‘liq holatlar tashkil etgan bo‘lib, bu miqdor taxminan 2 400–2 700 ta murojaatni qamrab oladi. Shuningdek, murojaatlarning sezilarli qismi tezkor tartibda hal etilgan bo‘lib, umumiy murojaatlarning salkam 40–45 foizi qo‘shimcha o‘rganishni talab etmagan holda, qabul jarayonining o‘zidayoq huquqiy tushuntirish berish yoki birlamchi maslahatlar orqali hal qilingan. Bu holat Ombudsman institutining fuqarolar murojaatlariga tezkor javob berish mexanizmi samaradorligini ko‘rsatadi. 2025-yilga

³ Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni Toshkent sh.2017-yil 11-sentabr, O‘RQ-445-son <https://lex.uz/docs/-3336169>

oid dastlabki tahlillarga ko'ra, murojaatlar soni dinamikasi nisbatan barqarorlashgan. Raqamlashtirish jarayonlarining kengayishi, jumladan Ombudsman.uz mobil ilovasi, OneID tizimi va onlayn maslahat platformalarining joriy etilishi natijasida siyosiy, fuqarolik va axborot olish huquqlariga oid murojaatlar ulushi 9,8–10,2 foiz atrofida shakllangan. Shu bilan birga, raqamli xizmatlar orqali kelib tushgan murojaatlarning qariyb 48 foizi masofaviy tartibda, ya'ni ariza qabul qilingan zahotiyoyq huquqiy tushuntirish va yechim berish orqali hal etilgan⁴.

Mazkur maqolada siyosiy huquqlarning nazariy-huquqiy asoslari, ularning amaliyotda qo'llanilishi hamda himoya qilinishining dolzarb masalalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, siyosiy huquqlar demokratik huquqiy davlatning ajralmas qismi bo'lib, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Saylash va saylanish, so'z va fikr erkinligi, yig'ilishlar o'tkazish, jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish hamda murojaat qilish huquqlari fuqarolarning siyosiy faolligini ta'minlovchi asosiy huquqiy institutlar hisoblanadi. Shuningdek, Ombudsman instituti faoliyati yuzasidan keltirilgan statistik tahlillar siyosiy huquqlarni himoya qilish mexanizmlarining amaliy samaradorligini ko'rsatadi. 2024–2025-yillar davomida murojaatlar sonining o'sishi hamda ularning sezilarli qismining tezkor tartibda hal etilishi davlat organlarining fuqarolar murojaatlariga javob berish tizimi bosqichma-bosqich takomillashib borayotganidan dalolat beradi. Biroq, siyosiy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilish sohasida ayrim muammolar, xususan huquqiy madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi, huquqiy mexanizmlarning ayrim holatlarda samaradorligi pastligi hamda institutsional tizimlarning yanada takomillashtirilishi zarurligi saqlanib qolmoqda. Shuningdek, mening fikrimcha siyosiy huquqlarni himoya qilishga oid qonunchilik normalarini

⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) faoliyatiga oid 2024–2025-yillardagi yillik hisobotlar va tahliliy ma'lumotlar to'plami. – Toshkent, 2025
<http://insonhuquqlari.uz/oz>

yanada takomillashtirish va ularni amaliyotda bir xilda qo'llash mexanizmlarini kuchaytirish, fuqarolarning huquqiy ongini oshirish maqsadida ommaviy huquqiy targ'ibot va ta'lim dasturlarini kengaytirish, Ombudsman va boshqa inson huquqlarini himoya qiluvchi institutlarning vakolatlarini yanada mustahkamlash hamda ularning hududiy qamrovini kengaytirish, murojaatlarni ko'rib chiqish tizimida raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish va sun'iy intellekt asosidagi tezkor xizmatlarni joriy etish, yig'ilishlar, mitinglar va jamoat tadbirlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlar asosida takomillashtirish kerak deb o'ylayman. Umuman olganda, siyosiy huquqlarni samarali himoya qilish fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, demokratik institutlarni mustahkamlash hamda huquqiy davlat qurishning muhim sharti bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023-yil / <https://lex.uz/docs/-6445145> .
2. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonuni. 2017-yil 11-sentabr, O'RQ-445-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz/docs/-3336169> .
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. – Toshkent: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi, 2023. – 480 b.
4. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. – Toshkent: Ilm Ziya, 2017-yil.
5. Xajiyev A., Tadjixonov A. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022. – 320 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) faoliyatiga oid 2024–2025-yillardagi yillik hisobotlar va tahliliy ma'lumotlar to'plami. – Toshkent, 2025.